

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) hajmi joriy narxlarda 24 650,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning tegishli davriga nisbatan 4,1 %ga o'sdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha aholi jon boshiga YAHM 6 298,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,0 %ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan xissasi 6,3% ni tashkil etdi.

### Yalpi hududiy mahsulot


(2022- yil yanvar-iyun holatiga, % taqqoslama narxda)

	mlrd.so'm		2021- yil nisbatan, % hisobida
	2021- yil	2022- yil	
<b>Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>			
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati			
Mahsulotlarga sof soliqlar			
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>			
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi			
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)			
sanoat			
qurilish			
<b>Xizmatlar</b>			
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar			
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari			
boshqa xizmatlari			

*Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati-102,3%, (YAHM tarkibidagi ulushi-33,1%), sanoat-106,6% (20,4 %), qurilish 109,0% (7,2%), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar-100,4% (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa-109,5 % (6,2 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar- 102,4 % (25,2 %) ni tashkil etdi.

## 2022- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### *iqtisodiy faoliyat turlari*

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,6 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 %ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,1% punktga kamaydi va hisobot yilida 33,1 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,2 % punktga o'sdi va 27,6 %ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining YAHM tarkibidagi ulushi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 39,3 %ni tashkil etdi va 2021- yil (40,4 %) bilan taqqoslanganda 1,1% punktga kamaydi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (yanvar-iyun holatiga, jamiga nisbatan %da)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 7,9 %ni (2021-yil-8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa - 6,2 %ni (6,4 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar - 25,2% ni (25,5%) tashkil etdi.


**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi**  
(yanvar-iyun, jamiga nisbatan,%da)



Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 6 298,5 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (5 350,7 ming so'm) mos davriga nisbatan 2,0 % ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YAHMda kichik biznes ulushi 67,0 %ni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**


2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 67,0 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 68,4 %)



Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan xissasi 6,3 %ni tashkil etdi.

### YAIM da Farg‘ona viloyatining ulushi, foizda



### Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–iyun holatiga

	YAHM mlrd. so‘m			Aholi jon boshiga, ming so‘m		
	2021- yil	2022 -yil	%	2021-yil	2022- yil	%
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>320 817,8</b>	<b>389 631,2</b>	<b>105,4</b>	<b>9 242,9</b>	<b>10 994,9</b>	<b>103,3</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11 352,0	13 051,2	103,5	5 888,3	6 674,4	102,1
Andijon	18 203,3	22 843,1	108,4	5 685,3	6 988,4	106,2
Buxoro	16 102,8	19 476,5	104,1	8 246,0	9 818,7	102,5
Jizzax	9 109,7	10 782,1	104,5	6 425,7	7 432,9	102,1
Qashqadaryo	19 178,4	22 234,2	104,6	5 723,9	6 494,6	102,4
Navoiy	27 216,0	32 149,8	106,4	26 737,4	30 943,0	104,2
Namangan	14 227,5	17 222,9	106,6	4 939,4	5 847,8	104,2
Samarqand	21 397,0	24 927,6	105,1	5 396,3	6 154,5	102,9
Surxondaryo	13 703,4	15 966,4	104,1	5 086,3	5 790,8	101,8
Sirdaryo	6 532,5	7 692,4	105,7	7 555,5	8 713,7	103,5
Toshkent v.	36 270,0	42 905,1	106,1	12 147,5	14 538,7	107,4
<b>Farg‘ona</b>	<b>20 526,7</b>	<b>24 650,4</b>	<b>104,1</b>	<b>5 350,7</b>	<b>6 298,5</b>	<b>102,0</b>
Xorazm	11 000,0	13 368,8	106,1	5 792,8	6 925,4	104,4
Toshkent sh.	56 337,0	68 703,4	107,8	20 746,4	23 806,6	101,4